

O‘zbekiston Respublikasi
adliya vazirining
2025-yil 1-fevraldagi 36-
um-son buyrug‘iga
1-ilova

**Eng yaxshi intellektual mulk obyektlari tanlovini
tashkil etish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida
NIZOM**

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi rezidentlariga tegishli eng yaxshi intellektual mulk obyektlari tanlovini o‘tkazish tartibi va shartlarini belgilaydi.

I. Umumiyl qoidalar

1. Eng yaxshi intellektual mulk obyektlari tanlovi (keyingi o‘rinlarda – Tanlov) maqsadi eng yaxshi intellektual mulk obyektlarini (keyingi o‘rinlarda – obyekt) aniqlash, e’tirof etish va huquq egalarini mukofotlash orqali ixtirochilik va ilmiy-texnikaviy ijodni rag‘batlantirish, innovatsion faollikni oshirish, yangi texnika, texnologiya va raqobatbardosh mahsulotlarni yaratishga ko‘maklashish hisoblanadi.

2. Tanlovda huquq egalari tanlov o‘tkazilayotgan yildan tashqari so‘nggi uch yil mobaynida muhofaza hujjatlari olingan va amalda saqlab turilgan eng yaxshi ixtiro yoki foydali model, eng yaxshi seleksiya yutug‘i, eng yaxshi sanoat namunasi nominatsiyalari bo‘yicha ishtirok etishi mumkin.

3. Tanlovga tayyorgarlik va uni o‘tkazish uchun O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Investitsiyalar, sanoat va savdo, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar, Qishloq xo‘jaligi, Adliya vazirliklari, Savdo-sanoat palatasi hamda Adliya vazirligi huzuridagi “Intellektual mulk markazi” davlat muassasasi (keyingi o‘rinlarda – Markaz) vakillaridan iborat tanlov komissiyasi (keyingi o‘rinlarda – Komissiya) tashkil qilinadi.

4. Tanlovga taqdim qilingan obyektlarni baholash va g‘oliblarni aniqlash uchun Markaz va sohaga oid boshqa vazirlik va idoralar vakillaridan iborat har bir nominatsiya bo‘yicha ekspert guruhlari shakllantiriladi. Nominatsiyalar bo‘yicha ekspert guruhlar tarkibi Komissiya qarori bilan tasdiqlanadi.

5. Ilgari o‘tkazilgan tanlovlarda mukofotli o‘rnlarni egallagan intellektual mulk obyektlari bo‘yicha arizalar ushbu Nizomga muvofiq o‘tkaziladigan tanlovda ko‘rib chiqish uchun qabul qilinmaydi.

6. Komissiya qarori yakuniy hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi hamda u bo‘yicha ma’lumot va izohlar berilmaydi.

7. Komissiya va nominatsiyalar bo'yicha ekspert guruhlarining a'zolari tanlovga arizalarni berish huquqiga ega emas.

8. Zarur hollarda nominatsiyalar bo'yicha ekspert guruhlari taklifi asosida Komissiya tomonidan ekspert guruhlarining ishiga texnika va boshqa sohalarda faoliyat yuritayotgan olimlar va mutaxassislar (tanlovda ishtirok etayotgan tashkilot xodimi bundan mustasno) jalb qilinishi mumkin.

9. Komissiya tanlov o'tkazilishi, uning shartlari va muddatlari, nominatsiyalar turlari, mukofot puli miqdorlari hamda tanlov natijalarini Markazning ipcenter.uz saytida e'lon qiladi.

II. Tanlovga hujjatlarni qabul qilish

10. Tanlovda ishtirok etishni istagan intellektual faoliyat natijasi egalari tomonidan Komissiyaga quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi:

- mazkur Nizomga 1-ilovaga muvofiq shakllantirilgan ariza;
- obyektdan foydalanish dalolatnomasi yoki obyektni foydalanishga tayyorligi to'g'risidagi boshqa hujjat (tajriba yoki sanoat sinovi dalolatnomasi, litsenziya shartnomasi, tatbiq qilish dalolatnomasi va boshqalar).

11. Nizomning 10-bandida ko'rsatilgan hujjatlar "Eng yaxshi intellektual mulk obyektlari tanloviga" deb ko'rsatilgan holda [Markazning tanlov@ima.uz](mailto:Markazning@ima.uz) pochta orqali elektron shaklda yoki ish kunlari soat 9:00 dan 17:00 gacha an'anaviy tarzda 100011, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Xadra mavzesi, 33-uy manzili bo'yicha, e'londa ko'rsatilgan muddatlarda Markaz tomonidan qabul qilinadi.

12. Tegishli hujjatlar taqdim etilgan kundan e'tiboran bir ish kunida tanlov ishtirokchisi hujjatlar qabul qilinganligi to'g'risida xabardor qilinadi. Bunda, xabar hujjatlar elektron pochta orqali taqdim qilinganda elektron shaklda yuboriladi yoki an'anaviy tarzda taqdim etilganda Markaz tomonidan muhrlangan ariza nusxasi beriladi.

13. Nizomning 10-bandida ko'rsatilgan barcha hujjatlar mavjud bo'lganda ular Komissiya va nominatsiyalar bo'yicha ekspertlar guruhlari tomonidan ko'rib chiqiladi. Hujjatlar to'liq taqdim etilmaganda Komissiya bildirishnomasi asosida kerakli hujjatlar e'londa ko'rsatilgan muddatlarda beriladi. E'lon qilingan muddat ichida kerakli hujjatlar berilmaganda ishtirokchiga tanlovda qatnashishga yo'll qo'yilmaydi.

14. Ko'rib chiqish uchun qabul qilingan hujjatlar tanlov ishtirokchilariga qaytarilmaydi va ularga taqrizlar berilmaydi.

III. Obyektlarni baholash tartibi

15. Tanlovga taqdim qilingan obyektlarni baholash quyidagi bosqichlarda o'tkaziladi:

1-bosqich – taqdim etilgan hujjatlar nominatsiyalar bo'yicha ekspert guruhlari tomonidan obyekt turidan kelib chiqib, mazkur Nizomga 2, 3 va 4-ilovalarga muvofiq baholanadi va natijalar Komissiyaga taqdim etiladi;

2-bosqich – Komissiya tomonidan ekspert guruhlarining baholash natijalari ko'rib chiqiladi, e'tirozlar mavjud bo'limganda eng ko'p ball to'plagan obyekt tanlov g'olib deb topiladi. E'tirozlar mavjud bo'lganda taqdim etilgan hujjatlar Komissiya tomonidan mazkur Nizomga 2, 3 va 4-ilovalarga muvofiq qayta baholanadi.

16. Obyektlarni baholashda ekspert guruhlari yoki Komissiya a'zolari (zaruratga ko'ra) tomonidan alohida-alohida har bir mezon bo'yicha taqdim etilgan ma'lumotlar asosida 0 dan 10 ballgacha baho qo'yiladi. Qo'yilgan baholarning o'rtacha ko'rsatkichi obyekt turidan kelib chiqib, mazkur Nizomga 2, 3 va 4-ilovalarga muvofiq jadvalga kiritiladi hamda ekspert guruhi rahbari va guruh a'zolari yoki Komissiya raisi va Komissiya a'zolari tomonidan tasdiqlanadi. Eng ko'p (maksimal) to'planishi mumkin bo'lgan ball – 40 ni tashkil etadi. Tegishli nominatsiya bo'yicha eng yuqori ball to'plagan obyekt g'olib deb topiladi.

IV. Tanlov g'oliblarini mukofotlash

17. Tanlovda har bir nominatsiya bo'yicha g'olib bo'lgan ishtirokchilar Adliya vazirligining faxriy yorlig'i bilan birgalikda quyida ko'rsatilgan miqdordagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi:

eng yaxshi ixtiro yoki foydali model bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravari;

eng yaxshi seleksiya yutug'i bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining 25 baravari;

eng yaxshi sanoat namunasi bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravari.

18. Mukofotlash tanlov natijalari e'lon qilingan kundan e'tiboran o'n ish kunida g'olib bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar (huquq egalari)ning hisobraqamlariga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

V. Tanlovnin o'tkazish muddatlari

19. Tanlovga ishtirokchilarning hujjatlari Komissiya tomonidan har yilning 1-fevraldan 1-aprel kuniga qadar qabul qilinadi.

20. Komissiya va nominatsiyalar bo'yicha ekspert guruhlari tomonidan har yili 20-aprel sanasida tanlov natijalarini baholash tugatiladi va yakuniy qaror qabul qilinadi.

21. Tanlov natijalari g'oliblarini taqdirlash marosimi 26-aprel – Xalqaro intellektual mulk kuni arafasida o'tkaziladi.

VI. Yakunlovchi qoida

22. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.